

## XITOIDA SHIMOLIY VEY SULOLASI ASOSCHILARINING KELIB CHIQUISH TARIXI HAQIDA QISAQACHA

**Rahimjonov Fayozbek Mirkomil o'g'li**

Farg'ona davlat universiteti talabasi

[rahimovfayozbek08@gmail.com](mailto:rahimovfayozbek08@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Shimoliy Xitoy hududida Vey sulolasining tashkil topishi, siyosiy hokimiyatining asosini mustaxkamlashga qaratilgan legimitatsion jarayonlar, syanbeyi qabilalarining xanlar bilan aralashuvi kabi masalalar xorijiy adabiyotlar talqinida o'quvchilar uchun taqdim etiladi.

**Kalit so'zlar:** olti qirollik, vey, syanbey, imperiya, tuoba,

### ABSTRACT

In this article, issues such as the founding of the Wei dynasty in Northern China, legitimation processes aimed at strengthening the basis of political power, interference of the Xianbei tribes with the Han are presented to the readers in the interpretation of foreign literature.

**Key words:** six kingdoms, wei, xianbei, empire, repentance

### KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION)

Hozirgi globallashgan zamonda tarixning turli masalalarini o'rganish ustuvor masala sifatida talqin qilinmoqda, xususan tarixiy tajribalarning keng miqiyosda bilish, ulardan kerakli xulosalarni chiqarilishi esa o'z navbatida ushbu soha vakillari uchun eng kerakli unsur hisoblanadi. Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev: "Milliy ma'naviyatimizni rivojlantirish, uni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz hayotiga singdirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning ahamiyati juda katta. Afsus, bu fanlar rivoji zamondan ortda qolmoqda. Xususan, biz uchun nihoyatda dolzarb bo'lgan tarix fani ham bundan mustasno emas. Tarixga oid ilmiy tadqiqot ishlari asosan bayonchilik, publitsistik usulda olib borilmoqda. Natijada, olis va yaqin o'tmishimizdagi ko'pgina voqealar mohiyati, ularni yuzaga keltirgan omillar va tarixiy qonuniyatlar ochilmasdan qolmoqda" – deb ta'kidlaydi[1:464]. Darhaqiqat jahon tarixida yuz bergan jarayonlar va ularning insoniyat hayotiga qilgan ta'sirlarini chuqur anglash hamda xulosa chiqara bilish tarixchi uchun kerakli unsurdir.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS)

Ushbu ilmiy ishimiz doirasida biz Xorijiy adabiyotlarning ayrim asarlaridan foydalangan holda mavzuyimizning mohiyatini ochib berishga harakat qilamiz hamda ish doirasida asosan o'zbek o'quvchilari uchun holisona fikrlarimizni taqdim etib boramiz. Mavzuning mohiyatini ochishda asosan Cambridge University press nashri tomonidan tavsiya etilgan mavzuga oid adabiyotlardan foydalanamiz.

### NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS)

Vey sulolasi yoki zamonaviy tarixchilar tomonidan shimoliy Vey sulolasi deya yuritilayotgan davlat Xitoy tarixidagi "6 sulola" ( six dynasty ) lardan biri xisoblanadi. Vey sulolasi, to'liq xitoycha (Pinyin) yoki Bei Vey hamda Pei Vey deb ham yuritiladi [2:128].

Zamonaviy ingliz tarixchilari tomonidan esa ushbu sulola "Northern Wei" ya'ni Shimoliy Vey sulolasi nomi bilan tilga olinadi, aksar zamonaviy ingliz tarixchilari, Amerika hamda Yevropaning taniqli va mashhur nashriyotlarda ushbu termin keng foydalaniladi. Umumiy xitoy tarixida esa bu masala umumiy asosda 6 qirollik davri deb ham amalda qo'llaniladi. Zamonaviy ingliz adabiyotlarida Vey sulolasiga bunday tus berishning asosiy sababi ushbu davlat Xitoyning shimoliy va shimoliy-sharqiy hududlarini nazoratda saqlaganliklari bilan izohlanadi. Shuningdek turmush tarzi jihatidan ham ular bir-biridan ya'ni Janubiy Zoudan farq qilgan[3:24]. Buning asosiy sabablaridan biri bu ushbu sulolaning asosini ko'chmanchilardan iborat ekanligi hamdir. Shimoliy Vey sulolasining asoschilari bo'lgan xalqlar (386–534) ichki Osiyolik syanbey (\*Särbi) xalqlarining bir bo'lagi bo'lgan tuobalar qabilalaridan bo'lib, oltoy tilida so'zlashganlar, ehtimol bu til mo'g'ul tilining ilk shakllaridan biri bo'lgan bo'lishi mumkin. Afsuski, ularning ona tilida saqlanib qolgan matnlar yoki boshqa turdagi adabiyotlar yo'q, faqat Shimoliy Veyning an'anaviy tarixini o'z ichiga olgan matnlarda ularning bir nechta so'zlari va nomlarining xitoy tili bilan bog'liq holdagi tarqoq transkripsiyalari, VI asr "Veyshi yu" yilnomasida uchraydi [4:480]. Bu nomlardan biri "Tuoba"ning o'zi bo'lib, Tuoba VIII asr turkiy O'rxun yozuvlarida alifbo tartibida "Tabgach" tarzida berilgan oltoycha nomning zamonaviy xitoycha transkripsiyasining mandarincha talaffuzi edi. Shu o'rinda o'quvchi Tuoba so'zi turkcha ya'ni turkiy qabilalarning mo'g'ullar bilan lahja jihatdan o'zaro kirishib ketishi natijasida Tabg'ach so'zi tuoba tarzida talaffuz qilingan va mana shu ohanglar tarzida "Tu-o-ba" talaffuz qilinganini ta'kidlab o'tish lozim.

### MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION)

Vey sulolasiga asos solgan qabilalarning yashagan hududi, xo'jaligi, kelib chiqishi, irqi borasidagi fikrlar Veyshu yilnomasining birinchi bobida tarjima qilingan va ba'zi hikoya qilingan afsonalar, zamonaviy arxeologlar ishiga qarshi qo'yilgan

bo‘lib o‘zaro qarama-qarshi fikrlar va qarashlar orqali ixtiloflarni yuzaga keltirdi. Hikoya qilinishicha Tuoba xalqlarining ilk yashagan va xo‘jalik yuritgan markazlaridan biri shimoliy Xingan tog‘larining sharqiy etaklaridagi qalin o‘rmonli yerlardan kelib chiqqanligini ko‘rsatadi. Milodiy birinchi asrda, Xionnu imperiyasi qulashi bilan, Tuoba janubga ko‘chib, "katta botqoq" deya nomlangan hududlarga borib ko‘chaganliklari aytiladi[5:48]. Bu Xulun Nur, o‘tloqli Ichki Mo‘g‘ul platosida joylashgan katta ko‘l bo‘lishi mumkin. Arxeologlarning o‘sha yerda qilgan tadqiqot ishlariga ko‘ra bu yerda ko‘chmanchilarga xos bo‘lgan xo‘jalik buyumlari, kamonlar va boshqa bir qarot qurollar borligi aniqlangan. Bundan kelib chiqadiki bu yerda istiqomat qilgan xalqlar ko‘chmanchi, chorvador va ovchilar bo‘lganligini ko‘rsatib, Veyshu yilnomalari taqdim etgan afsonalarning haqiqatga yaqin ekanligini amalda ifoda etadi.

U yerdagi populyatsiyalar aralash edi va zamonaviy DNK tadqiqotlari turli guruhlarning chatishtirishini ko‘rsatadi; Zamonaviy olimlardan biri "Tuoba" so‘zining ma‘nosi "Syanbey otasi, Xiongnu onasi" degan ma‘noni anglatadi, hatto haqiqiy etimologiya turli guruhlarning qo‘shilish haqiqatini aks ettiradi. Bu etnik murakkablik Tuobalarning butun tarixi davomida o‘ziga xos xususiyat bo‘lib qoladi [6:33].

Afsonalarga ko‘ra manbalarda ilk marotaba tilga olingan Tuobalar hukmdori Liviy edi, u haqida dastlab turli mulohaza hamda ixtiloflarni yuzaga keltirgan mulohazalar bor, Afsonada jumladan shunday deyiladi: Yinshan va uning jiyani olib kelgan samoviy qiz “天女”( tian nu) nikohi natijasida dunyoga kelgan Tuoba xalqlarining umumiy rahbari Li Viy edi. Ammo bir qator zamonaviy tarixchilar bunga qarshi chiqadilar, chunki afsonani shunchaki ertak sifatida talqin qilishlar ham kam emas. Li Vey davrida Ichki Osiyo hududida yuzlab parchalangan davlatlar bor edi, qudratli mahalliy harbiy zodagonlardan birining qiziga uylangan Li Vey qaynotasining vafotidan keyin, ya‘ni 248-yilda eng kata kuchga ega hukmdorlardan biriga aylanadi. Shu tariqa shimoliy Xitoy hududida Veylarning hokimiyati uchun asos xozirlandi.

### **XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)**

Xulosa qilib aytganda Tuobalar bu o‘sha davrda Xitoyning g‘arbiy hududida yashagan jangovor ko‘chmanchi qabilalaridan biri bo‘lib, keyinchalik uch qirollik davridagi qirolliklar (Vey, Shu, U) dan biri hisoblangan Vey sulolasining davomchisi sifatida Veylar nomi bilan mamlakatning shimoliy qismlarini boshqarganlar. Legimitatsion jarayonlarning tasgkil etilishi bu siyosiy masala bo‘lib, syanbeylarning asli kelib chiqishlari mo‘g‘ullarga borib taqalishi yoki tatarlarga borib bog‘lanishi xolatlarini juda katta ehtimol bilan taxmin qiladilar. Ammo bu tarixiy haqiqatga asos bo‘la olmaydi, chunki buni isbotlovchi kam miqdorda yozilgan uzuq-yuluq ikki og‘iz transkripsiyala ularning asli kim ekanligi, til jihatdan chegara bilmaganligi holatari ham ehtimoldan xoli emas, shuning uchun esa asosiy etiborni ularning Xitoy shimolida

joylashgan ko'chmanchi qabilalar Syanbey xalqlariga maqul ekanligini tan olgan holda, keyinchlik ularning xanlar bilan o'zaro birikishib ketishganligini tan olish joizdir. Shaxsif fikrlarimni omma uchun taqdim etarkanman xulosa qilishni esa muhtarama o'quvchilarga havola qilaman.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Mirziyoyev, Sh.M.(2021). Yangi O'zbekiston strategiyasi. O'zbekiston.
2. The cambridge history of china, volume II, edited by Edrick Golden., article by Zou Li Tonqiuian.- L.: Cambridge publishing, 2019.
3. Christopher I. B. The Chinese names of the Tibetans, Tabghatch, and Turks. – New York publishing, 2005..
4. The historical chronicle of China. "Wei shu bei" 位数背. / Translate by Tonqiuian Loi Zou. – London.: Cambridge – 2002.
5. Su Bai. "Dongbei, Nei Menggu diqu de. – Xianbei yiji.: Xianbi Wenwu publishing, 1977.
6. Ma Changshou. Wuhuan yu Xianbei. – Shanghai, 1962.